



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI  
HUZURIDAGI  
O‘ZBEKISTON TEXNIK JIHATDAN TARTIBGA SOLISH  
AGENTLIGI DIREKTORINING  
BUYRUG‘I**

66-son

19-noyabr 2024-yil

**Tamaki mahsulotlari uchun texnik reglament kuchga kirishi bilan ushbu texnik reglament talablariga rioya etilishini ixtiyoriy ta‘minlaydigan hamda texnik reglamentlarda belgilangan mahsulotning muvofiqligini baholash uchun zarur bo‘lgan, namunalar olish, sinash va o‘lchash usullarini belgilaydigan standartlar ro‘yxatlarini tasdiqlash to‘g‘risida**

**“Tamaki mahsulotlari to‘g‘risidagi” (Uz.TR.290-031:2024) texnik reglament (keyingi o‘rinlarda – texnik reglament) kuchga kiritilishi hamda O‘zbekiston Respublikasining “Texnik jihatdan tartibga solish to‘g‘risida”gi Qonunining 9-moddasiga muvofiq, buyuraman:**

1. Quyidagilar O‘zbekiston Respublikasi hududida 2025-yilning 1-yanvaridan:

mazkur texnik reglament talablariga rioya etilishi ixtiyoriy ta‘minlanadigan standartlar ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq;

texnik reglamentlarda belgilangan mahsulotning muvofiqligini baholash uchun zarur bo‘lgan, namunalar olish, sinash va o‘lchash usullarini belgilaydigan standartlar ro‘yxati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. **Standartlar instituti** (D.Qodirov) mazkur texnik reglament bilan tartibga solinadigan mahsulotlarga yangi standartlar (barcha toifadagi) qabul qilinishi to‘g‘risidagi ma‘lumot har oy yakuni bilan Texnik reglamentlar va standartlar bo‘yicha dasturlarni amalga oshirish boshqarmasiga kiritib borsin.

3. **TRvaSBDAO** boshqarmasi (D.Xodjikariyev) taqdim etilgan yangi standartlarni belgilangan tartibda ushbu buyrug'ning 1-ilovasi bilan tasdiqlangan, texnik reglament talablariga rioya etilishi ta'minlanadigan standartlar ro'yhatiga kiritib borsin.

4. **RvaAXTB** (F.Usmanov) va **TRvaSBDAOB** (D.Xodjikariyev) mazkur buyrug' bilan tasdiqlangan standart ro'yhatlari O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining rasmiy veb saytiga joylashtirilishini ta'minlasin.

5. **“UzTest” DM** (J.Kattaxodjayev) **“Akkreditasiya markazi” DM** (A.Zakirov) va mazkur buyrug'ning 2-ilovasi bilan tasdiqlangan texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar bo'yicha sertifikatlashtirish idoralarini va sinov laboratoriyalari akkreditatsiya soxasini kengaytirish choralari ko'rsin.

6. **Ijro nazorati, muroja tlar bilan ishlash va devonxona bo'limi** (Z.Gafurov) O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi tegishli tizim tashkilotlarini mazkur buyrug' bilan 2 kunlik muddatda tanishtirsin.

7. Ushbu buyrug' ijrosi ustidan nazorat direktorning birinchi o'rinbosari A.Abdukayumov zimmasiga yuklatilsin.

Direktor



A. Jumanazarov

Texnik jihatdan tartibga solish  
agentligining 2024-yil 19-noyabrdagi 66  
-sonli buyrug'iga  
2-ilova

**“Tamaki mahsulotlari to‘g‘risidagi” (Uz.TR.290-031:2024) texnik reglamentida  
belgilangan mahsulotlarning muvofiqligini baholash uchun zarur bo‘lgan,  
namunalar olish, sinash va o‘lchash usullarini belgilaydigan standartlar ro‘yxati**

<b>T/r</b>	<b>Texnik reglamentning tarkibiy elementi</b>	<b>Belgilanish</b>	<b>Nomlanishi</b>	<b>Izoh</b>
1	2, 3-bob	ГОСТ 31629–2012	Табак и табачные изделия. Контрольный образец. Требования и применения. (Tamaki va tamaki mahsulotlari. Nazorat namunasi. Talablari va qo'llanilishi.)	
2	2, 3, 6- bob	ГОСТ 31632–2016	Сигареты. Отбор проб (Sigaretlar. Namunalarni tanlash)	
3	3, 6 - bob	ГОСТ ISO 3308-2015	Машина обычная лабораторная для прокуривания сигарет (курительная машина). Определения и стандартные условия. (Sigaretlarni chekish uchun ishlatiladigan odatdagi laboratoriya mashinasi (chekish mashinasi). Ta'riflar va standart shartlar)	
4	3, 6 - bob	ГОСТ ISO 3402-2003	Табак и табачные изделия. Атмосферы для кондиционирования и испытаний. (Tamaki va tamaki mahsulotlari. Konditsionerlash va sinovlar uchun atmosferalar)	
5	3, 6 - bob	ГОСТ 30438-2003	Сигареты. Определение содержания алкалоидов в конденсате дыма. Спектрометрический метод. (Sigaretlar. Tutun kondensatida alkaloidlar miqdorini aniqlash. Spektrometrik usul)	
6	3, 6 - bob	ГОСТ 30570-2015	Сигареты. Определение содержания никотина в конденсате дыма. Метод газовой хроматографии. (Sigaretlar. Tutun kondensatida nikotin miqdorini aniqlash. Gaz xromatografiyasi usuli)	
7	3, 6 - bob	ГОСТ 30571-2022	Сигареты. Определение содержания влажного и не	

			содержащего никотин сухого конденсата (смолы) в дыме сигарет с помощью лабораторной курительной машины (Laboratoriya chekish mashinasi yordamida sigaret tutuni tarkibidagi namlik va tarkibida nikotin bo'lmagan quruq kondensat (qatron) miqdorini aniqlash)	
8	3, 6 - bob	ГОСТ 30622.1-2022	Сигареты. Определение содержания воды в конденсате дыма. Метод газовой хроматографии (Sigaretlar. Tutun kondensatida suv miqdorini aniqlash. Gaz xromatografiyasi usuli)	
9	2, 3, 6- bob	ГОСТ 30622.2-98	Сигареты. Определение содержания воды в конденсате дыма. Метод Карла Фишера (Sigaretlar. Tutun kondensatida suv miqdorini aniqlash. Karl Fisher usuli)	
10	2, 3, 6- bob	ГОСТ 31630-2012	Сигареты. Определение содержания монооксида углерода в газовой фазе сигаретного дыма с помощью не дисперсного инфракрасного (NDIR) анализатора (Sigaretalar. Nodispers infraqizil (NIQ) analizator yordamida sigareta tutunining gaz fazasidagi uglerod monooksidi miqdorini aniqlash)	
11	2, 3, 6- bob	O`zDSt 3517-2021 A va B ilovalar	Tarkibida nikotin bo'lgan mahsulot. Qizdiriladigan tamaki mahsulotlari. Texnik shartlar.	
12	2, 3, 6- bob	ГОСТ R 58109-2018 п-6	Жидкости для электронных систем доставки никотина. Общие технические условия (Nikotinni yetkazib berish elektron tizimlari uchun suyuqliklar. Umumiy texnik shartlar)	
13	3, 6- bob	ГОСТ 26929-94	Сырье и продукты пищевые. Подготовка проб. Минерализация для определения содержания токсичных элементов (Xom ashyo va oziq-ovqat mahsulotlari. Namuna tayyorlash. Mineralizatsiya orqali toksik elementlar miqdorini aniqlash.)	
14		ГОСТ 26927-86 п.2	Сырье и продукты пищевые. Методы определения ртути (Xom ashyo va oziq-ovqat mahsulotlari. Simobni aniqlash usullari.)	
15		ГОСТ 26930-86	Сырье и продукты пищевые. Методы определения мышьяка	

			(Xom ashyo va oziq-ovqat mahsulotlari. Margomishni aniqlash usullari.)	
16	3, 6- bob	ГОСТ 26932-86 п.4	Сырье и продукты пищевые. Методы определения свинца (Xom ashyo va oziq-ovqat mahsulotlari. Qorg'oshinni aniqlash usullari.)	
17		ГОСТ 26933-86 п.4	Сырье и продукты пищевые. Методы определения кадмия (Xom ashyo va oziq-ovqat mahsulotlari. Kadmiy miqdorini aniqlash usullari.)	
18		ГОСТ 30538-97	Продукты пищевые. Методика определения токсичных элементов атомно-эмиссионным методом (Oziq-ovqat mahsulotlari. Toksik elementlarni atom-emissiya usuli bilan aniqlash metodikasi.)	
19		ГОСТ 32181-2013 (ISO 4389:2000)	Табак и табачные изделия. Определение остаточных количеств Хлорорганических пестицидов. Газохроматографический метод (Tamaki va tamaki mahsulotlari. Xlororganik pestitsidlarning qolgan miqdorini aniqlash. Gaz xromatografiyasi usuli)	